

## DASTURLASH TARIXI VA UNING ISTIQBOLI HAQIDA

Dadaboyev A‘zamjon Zafarjon o‘g‘li

**Annotatsiya:** *O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik odimlarini dadil qo‘yayotgan hozirgi davrda axborotlashgan jamiyat qurish masalasi mamlakatimiz uchun naqadar katta ahamiyat kasb etayotgani hech kimga sir emas. Internet hayotimizning bir bo‘lagiga aylandi. Biz uning xizmatlaridan har kuni foydalanishga odatlandik.*

**Kalit so‘zlar:** *Mark-I, optimizatsiya, mashina kodi, kodlashtirish, algoritim, Dastur, EHM, metod, axborot, ijtimoiy resurs, o‘qitish texnologiyalari.*

Biz mustaqil O‘zbekiston yoshlari har tomonlama yetuk barkamol avlod bo‘lib yetishimiz uchun keng imkoniyatlar yaratib Prezidentimiz yosh avlod tarbiyasiga juda kata e‘tibor berib kelmoqdalar. Jumladan, asosiy vazifamiz vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirish nomli 2009-yilning asosiy yakunlari 2010-yilda O‘zbekistonning ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishini eng muhim ustuvor yo‘nalishlarda bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasida: “Biz farzandlarimiz nafaqat jismoniy va ma‘naviy sog‘lom o‘sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo‘lgan, uyg‘un rivojlangan insonlar bo‘lib, XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishi uchun zarur bo‘lgan barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz. O‘z oldimizga qo‘yilgan yuksak vazifa va marralarga erishishda zamonaviy bilim va tarbiya sohibi bo‘lgan, yangicha fikrlaydigan yoshlarimiz bizning asosiy tayanchimiz va suyanchimiz”. Respublikamizda o‘qitish texnologiyalarini zamonaviylashtirishni jadallashtirish rivojlangan iqtisodiyotli mamlakatlarga qaraganda yanada dolzarb ahamiyatga ega. Chunki hozirgi kunda milliy ta‘lim tizimining salohiyati iqtisodiy rivojlanishning yanada yuqori pog‘onasiga ko‘tarilishga amaliy imkoniyat ta‘minlovchi asosiy ijtimoiy resurs sifatida gavdalanadi.

Hisoblash texnikasi juda jadal rivojlanib xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlariga kirib bormoqda, jumladan ishlab chiqarish, boshqarish, moliya tizimlarida hamda harbiy texnikada keng qo‘llanmoqda. Shu bilan bir qatorda kompyuterda axborotlarini qayta ishlash, saqlash va uzatish muammosi hozirgi paytning aktual muammolaridan biri hisoblanadi.

Dasturlash usullari dasturni o‘qilishini qulayligi bilan o‘zaro bog‘liq. Usullar deganda tajribali dastur tuzuvchilar to‘g‘ri natijali, foydalanishda qulay, qulay bo‘lgan dasturlarni tuzishda foydalanadigan usul va metodlar nazarda tutiladi. Dastur shunday tuzilishi kerakki, uni birinchi qatorda mashina yoki EHM emas balki inson o‘qib tushunsin. Chunki dastur insonlarga dasturlarni tuzishda, shakllantirishda va ularni qo‘llashda kerak bo‘ladi. Dastur - bu keyinchalik ishlatishga va takomillashtirishga mo‘ljallangan hujjat, algoritmlarni kodlashtirish uchun o‘quv materiali va hokazolardir. Demak dasturlash tillari bizga o‘qishda qulay bo‘lgan dasturni yaratishni ta‘minlab berishi kerak. Dastur iloji boricha algoritimni tuzilishini va mantiqni bizga tushunarliroq qilib yetkazib berishi kerak. Albatta biz juda ko‘p joylarda va jarayonlarda standartlarga asosan ish olib boramiz. Lekin dasturlash usullarida bunga qarshi bir necha fikrlar aytilgan. Ulardan birini keltirib o‘tamiz: dasturlash usuli - bu shaxsiy fikr va didga bog‘liqdir. Shuning uchun unga hech qanday chegaralanishlar qo‘yilmasligi kerak. Birinchi EHM lar uchun dasturlarni dasturchilar mashina kodi

tilida yozganlar. Bu juda qiyin va uzoq vaqt talab etadigan jarayon edi. Dastur tuzishni boshlash va ishlatib ko‘rish orasida ancha vaqt o‘tar edi. Bunday muammolarni yechish faqatgina dasturlash jarayonini rivojlantirish, optimizatsiya qilish orqaligina bajarilishi mumkin edi. Dasturchilar mehnatini iqtisod qiluvchi bunday “jihaz” o‘rnini qism dasturlari egalladi. 1944 yil avgustida releli “Mark-I” mashinasi uchun Greys Xopper (dasturchi ayol, AQSh ning dengiz ofitseri) boshchiligida sinx ni hisoblovchi qism dasturi yozildi.

Greys Xopperdan boshqalar ham bu ishda ortda qolmadilar. 1949 yilda Jon Mouchli (ENIAK EHM si ixtirochilaridan biri) yuqori darajali dasturlash tillarining dastlabkilariga asos bo‘lgan Short Code sistemasini ishlab chiqdi. 1951 yilda Greys Xopper birinchi bo‘lib A-O kompilyatorini yaratdi. Birinchi yuqori darajali dasturlash tillari: COBOL vaFORTRAN.O‘tgan asrning 50-yillarida Greys Xopper boshchiligida yangi dasturlash tili va kompilyatori V-O ni ishlab chiqishga kirishildi. Yangi til dasturlashni ingliz tiliga yaqin tilda yaratish imkonini berdi. 30 ga yaqin inglizcha so‘zlar tanlandi. 1958 yilda V-O sistemi Flow-Matic nomini va tijoriy ma'lumotlarni qayta ishlashga yo‘naltirildi. 1959 yilda COBOL (Common Business Oriented Language - umumiy tijoratga yo‘naltirilgan til ) tili o‘ylab chiqildi. Bu til mashinadan mustaqillikka ega bo‘lgan yuqori darajali biznesga yo‘naltirilgan dasturlash tilidir. Mashinadan mustaqillikka ega bo‘lgan dasturlash tillarida yozilgan dasturlar istalgan turdagi EHM da maxsus kompilyatorlar vositasida bajarilaveradi. COBOL tilini yaratishda ham Greys Xopper maslahatchi bo‘lgan. 1954 yilda FORTRAN (FORMula TRANslation) tili yaratilayotgani haqidagi xabar chop etildi. Bu dastur IBM kompaniyasining Nyu Yorkdagi shtab kvartirasida yaratildi. Uni tuzuvchilardan biri Jon Bekus bo‘ldi. U BNF(NFB - normalnaya forma Bekusa - Bekusning normal formasi ) muallifi bo‘lib, bu forma ko‘plab dasturlash tillarining sintaksisini izohlashda qo‘llaniladi. Bu vaqtda Yevropa davlatlarida mashhur til ALGOL edi. Xuddi Fortran kabi u ham matematik topshiriqlarga yo‘naltirilgan edi. Unda o‘sha davrning ilg‘or texnologiyasi - tarkibli dasturlash amalda qo‘llangan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. S.S.Qosimov. Axborot Texnologiyalari, Toshkent, Aloqachi, 2006
2. Aripov M.M, Imomov T, Irmuhamedov Z.M va boshqalar. Informatika va axborot texnologiyalari: -Toshkent: O‘zbekiston, 1-qism. 2002y, 2-qism. 2003y
3. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)